najlardı ataw quralı emes, bálkim teksttiń semantikalıq kompoziciyasın hám stilistikalıq ózgesheliklerin támiyinleytuǵın kóp funkciyalı sistema sıpatında bahalanadı.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Васильев Л.М. Единицы семантической системы языка. Вопросы семантики. М., 1971 с. 39–183.

(2). Литвин Ф.А. Экспрессивность как свойство лексико-семантической группы. Экспрессивность лексики и фразеологии. Новосибирск, НГУ, 1983, с. 84–93.

(3). Романовский С.Т. Вятские – люди хватские. М., "Молодая гвардия", 1974, 272 с.

(4). Супрун В.И. Ономастическое поле русского языка и его художественно-эстетический потенциал. Волгоград, "Перемена", 2000.

(5). Чичагов В.К. Из истории русских имён отчеств и фамилии. Москва, 1959.

(6). Avezova D. Speaking surnames and their role in the Stylistic image of a work of art. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 10 OCTOBER 2023. UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ

(7). Kozieva I.K. History of the development of russian anthroponymy//INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION. 2022, vol. 3, № 3.

Elova Dilrabo Qudratillayevna (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti; E-mail: dilraboelova@gmail.com)

LINGVISTIK EKSPERTIZANING METODOLOGIK CHEGARALARI VA LINGVO-MANTIQIY YONDASHUV ZARURATI

Annotatsiya. *Maqolada sud-lingvistik ekspertizaning metodologik imkoniyatlari va uning ayrim cheklanishlari tahlil qilinadi. Leksik-semantik tahlil, implikatura, inferensiya, yashirin ayblov hamda argumentativ manipulatsiya bilan bog'liq hodisalar misolida lingvistik ekspertizaning qo'llanish chegaralari ko'rsatib beriladi. Soliq kodeksining ayrim moddalari asosida normativ talqin jarayonida yuzaga keladigan inferensial muammolar yoritiladi. Tadqiqot natijasida lingvistik, pragmatik va mantiqiy tahlilni birlashtiruvchi lingvomantiqiy yondashuvning metodologik imkoniyatlari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *lingvistik ekspertiza, lingvomantiqiy ekspertiza, implikatura, inferensiya, argumentativ tahlil, normativ talqin, yuridik diskurs.*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОГРАНИЧЕНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ И НЕОБХОДИМОСТЬ ЛИНГВО-ЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В статье анализируются методологические возможности судебно-лингвистической экспертизы и отдельные ограничения её применения. На примере лексико-семантического анализа, импликатуры, инференции, скрытого обвинения и аргументативной манипуляции показаны границы применения лингвистической экспертизы. На материале отдельных статей Налогового кодекса рассматриваются инференциальные проблемы, возникающие в процессе толкования нормативных текстов. По результатам исследования обсуждаются методологические возможности лингво-логического подхода, объединяющего лингвистический, прагматический и логический анализ.*

Ключевые слова: *лингвистическая экспертиза, лингво-логическая экспертиза, импликатура, инференция, аргументативный анализ, толкование правовых норм, юридический дискурс.*

METHODOLOGICAL LIMITATIONS OF LINGUISTIC EXPERTISE AND THE NECESSITY OF A LINGUO-LOGICAL APPROACH

Annotation. *The article examines the methodological capabilities of forensic linguistic expertise and some of its limitations. Using examples related to lexical-semantic analysis, implicature, inference, hidden accusation, and argumentative manipulation, it outlines the boundaries of linguistic expertise. Drawing on selected provisions of the Tax Code, the paper discusses inferential problems that arise in the interpretation of legal norms. The study also considers the methodological potential of a linguo-logical approach that combines linguistic, pragmatic, and logical analysis.*

Keywords: *linguistic expertise, linguo-logical expertise, implicature, inference, argumentative analysis, legal interpretation, legal discourse.*

Kirish. Sud-lingvistik ekspertiza bugungi kunda yuridik ahamiyatga ega matnlarni tahlil qilishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha doirasida mualliflikni aniqlash, haqorat va tuhmat mazmunini baholash, terminlarning qo'llanishini izohlash hamda konfliktli matnlarni tavsiflash bilan bog'-

liq masalalar tadqiq etib kelinmoqda. Sud amaliyotida uchraydigan matnlarning murakkablashuvi esa lingvistik tahlil oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Ayrim hollarda matnning lug‘aviy ma’nosi bilan undan kelib chiqadigan kommunikativ ta’sir o‘rtasida tafovut kuzatiladi. Ayniqsa, implikatura, inferensiya va yashirin ayblov bilan bog‘liq holatlarda ma’no alohida so‘z yoki grammatik shakl orqali emas, balki kontekst va kommunikativ bog‘lanishlar vositasida shakllanadi. Xuddi shunday holat normativ-huquqiy matnlarni talqin qilish jarayonida ham uchraydi. Norma matnida ifodalangan mazmun bilan undan kelib chiqadigan huquqiy xulosa har doim ham to‘liq mos tushavermaydi.

Mazkur maqolada lingvistik ekspertizaning ayrim metodologik chegaralari implikatura, inferensiya va normativ talqin bilan bog‘liq misollar asosida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu masalalarni tahlil qilishda lingvo-mantiqiy yondashuvning imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sud-lingvistik ekspertizaning nazariy asoslari J.Svartvik [8; 46-b.], R.Shuy [7;227-b.], M.Coulthard, A.Johnson [4;304-b.], E.I.Galyashina [2;236-b.] va A.N.Baranov [1;592-b.] tadqiqotlarida yoritilgan. Ushbu ishlarda mualliflik identifikatsiyasi, konfliktli matnlarni tahlil qilish, haqorat va tuhmat mazmunini aniqlash, shuningdek, sud amaliyotida til dalillaridan foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan.

R.Shuy nutqiy vaziyat va kommunikativ maqsadning ekspertiza uchun ahamiyatiga e’tibor qaratgan bo‘lsa [7;227-b.], M.Coulthard va A.Johnson [4;304-b.] sud-lingvistik tahlilning amaliy qo‘llanish doirasini keng yoritgan. E.I.Galyashina [2;236-b.] va A.N.Baranov [1;592-b.] ishlari esa yurislingvistika hamda lingvistik ekspertizaning nazariy va metodik masalalarini ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek tilshunosligida lingvistik ekspertiza bilan bog‘liq tadqiqotlar keyingi yillarda amaliy tilshunoslik va yurislingvistika yo‘nalishlarida olib borilmoqda. K.Musulmonova yozma matnlarni lingvistik ekspertizadan o‘tkazishning maqsadi, obyektlari va bosqichlarini tavsiflagan [5;97–99-b.]. N.Najmiddinova haqorat mazmunidagi matnlarni tahlil qilish hamda ularni ekspertizadan o‘tkazish mezonlariga murojaat qilgan [6;42-b.]. Shuningdek, normativ-huquqiy matnlar, konfliktli diskurs va yuridik muloqot bilan bog‘liq ayrim masalalar ham tadqiq etilmoqda.

Mavjud ishlarda asosan matnning leksik-semantik xususiyatlari, uslubiy belgilari yoki identifikatsion jihatlariga e’tibor qaratilgan. Implikatura, inferensiya, yashirin ayblov va normativ talqinning o‘zaro bog‘liqligini ekspertiza nuqtayi nazaridan izohlash masalasi esa hozircha alohida metodologik yo‘nalish sifatida yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiali sifatida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining ayrim moddalari hamda konfliktli kommunikatsiya namunalaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida matnning eksplitsit mazmuni bilan undan kelib chiqadigan implitsit ma’nolar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashga e’tibor qaratildi. Shu maqsadda semantik tahlil, pragmatik tahlil, qiyosiy tahlil va inferensial yondashuvdan foydalanildi. Normativ-huquqiy matnlarni tahlil qilishda norma matnida bevosita ifodalangan mazmun bilan talqin jarayonida shakllanadigan xulosalar o‘rtasidagi bog‘lanishlar kuzatildi. Konfliktli matnlar misolida esa implikatura, yashirin ayblov va kommunikativ ta’sirning yuzaga kelish mexanizmlari baholandi. Olingan natijalar lingvistik tavsif, pragmatik talqin va mantiqiy bog‘lanishlar birligi asosida izohlandi.

Tahlil va natijalar. Leksik-semantik tahlilning chegaralari. An’anaviy lingvistik ekspertiza, asosan, leksik-semantik tahlilga tayanadi. Bunda so‘z va iboralarning lug‘aviy ma’nosi aniqlanadi, ularning kontekstdagi qo‘llanishiga baho beriladi va shu asosda ekspert xulosasi shakllantiriladi. Biroq so‘z ma’nosini aniqlash har doim ham matnning haqiqiy kommunikativ mazmunini ochib bermaydi. Masalan, *«U halol odam ekan»* va *«U juda halol ekan-a»* gaplari tarkibidagi asosiy leksik birliklar bir xil. Shunga qaramay, ikkinchi gapda ironik ma’no yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda mazmun lug‘aviy birliklardan emas, pragmatik vaziyatdan kelib chiqadi.

Shunga o‘xshash holatlar normativ-huquqiy matnlarda ham uchraydi. Qonun matnidagi terminning lug‘aviy ma’nosi bilan uning normativ qo‘llanish doirasi har doim ham mos kelavermaydi. Natijada talqin muammosi yuzaga keladi. Demak, bir xil leksik tarkib turli kommunikativ vaziyatlarda qarama-qarshi pragmatik natija hosil qilishi mumkin.

Implikatura va inferensiya muammosi. Lingvistik ekspertiza amaliyotida murakkab masalalardan biri implikaturani aniqlash bilan bog‘liq. H.Grice tomonidan tavsiflangan implikatura gapda bevosita ifodalanmagan, biroq kommunikativ vaziyat va nutqiy kontekst asosida anglashiladigan ma’noni bildiradi [3; 41–48-b.]. Masalan, *«Men uni o‘g‘ri demayman»* jumlasi yuzaki mazmuniga ko‘ra, ayblovni rad etadi. Biroq kommunikativ vaziyatda aynan *«o‘g‘ri»* tushunchasining tilga olinishi adresatda salbiy tasavvur yoki

yashirin xulosaning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shunday holatlarda matnning eksplitsit mazmuni bilan uning pragmatik ta’siri o‘rtasida tafovut yuzaga keladi.

Inferensiya masalasi, ayniqsa, normativ-huquqiy matnlarni talqin qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy norma matnida ifodalangan mazmun bilan undan kelib chiqadigan amaliy xulosa har doim ham to‘liq mos tushavermaydi. Masalan, Soliq kodeksining 13-moddasida soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi mustahkamlangan [9]. Mazkur normada qo‘llangan *«bartaraf etib bo‘lmaydigan noaniqlik»* birikmasining aniq chegaralari ochib berilmagan. Shu sababli ushbu qoidaning amaliy qo‘llanishi normaning matni bilangina emas, balki uni talqin qilish jarayonida shakllanadigan inferensial xulosalar bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Shunga o‘xshash holat Soliq kodeksining 14-moddasida ham kuzatiladi [9]. Unda bitimlarni ularning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib baholash nazarda tutilgan. Biroq *«haqiqiy iqtisodiy mazmun»* tushunchasining qamrovi va mezonlari norma matnida to‘liq aniqlashtirilmagan. Natijada mazkur tushunchaning konkret huquqiy vaziyatlarda qo‘llanishi qo‘shimcha interpretativ faoliyatni talab qiladi. Bu esa normativ matnni tushunishda semantik tahlil bilan bir qatorda inferensial va pragmatik omillar ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Yashirin ayblov va argumentativ manipulyatsiya. Zamonaviy kommunikativ amaliyotda yashirin ayblovga asoslangan nutqiy konstruksiyalar tez-tez uchraydi. Bunday holatlarda ayblov ochiq shaklda ifodalanmaydi, biroq matnning umumiy mazmuni adresatni muayyan xulosaga olib keladi. Masalan, *«Pul qayerdan kelganini hamma biladi»* jumlasida bevosita ayblov mavjud emas. Shunga qaramay, kontekstga qarab ushbu ibora ma’lum bir shaxs faoliyatiga nisbatan salbiy munosabat yoki shubha uyg‘otishi mumkin.

Shunga o‘xshash holat *«Tenderlarni kim yutayotganini ko‘rib turibsiz»* jumlasida ham kuzatiladi. Bu yerda ma’lumot berishdan ko‘ra, o‘quvchi yoki tinglovchini muayyan fikrga yo‘naltirish ustunlik qiladi. Mazmunning asosiy qismi alohida so‘zlarda emas, balki gapning umumiy qurilishi va uning kommunikativ vazifasida namoyon bo‘ladi.

Bunday matnlarda ta’sir, ko‘pincha, dalillar orqali emas, balki ishora, taxmin yoki bog‘lanishlar vositasida yuzaga keladi. Ayrim hollarda bahs predmeti o‘rniga shaxsning o‘ziga e’tibor qaratiladi, ayrim hollarda esa ikki hodisa o‘rtasida bevosita isbotlanmagan bog‘lanish mavjuddek taassurot hosil qilinadi. Natijada matn grammatik va semantik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa ham, uning kommunikativ ta’siri auditoriyani oldindan belgilangan xulosaga yo‘naltirishi mumkin.

Lingvistik ekspertiza bunday birliklarning til xususiyatlarini tavsiflashga qodir. Biroq matnda ilgari surilgan fikrning qanchalik asoslanganligi, xulosaning qanday shakllanganligi va uning qanday ta’sir mexanizmlariga tayanganligini aniqlash qo‘shimcha tahlil usullarini talab qiladi.

Lingvo-mantiqiy ekspertizaga ehtiyoj. Yuqorida ko‘rib chiqilgan misollar lingvistik ekspertizaning imkoniyatlari bilan bir qatorda uning metodologik chegaralarini ham ko‘rsatadi.

Nizoli matnlarda ma’no har doim ham alohida so‘z yoki grammatik shakl orqali yuzaga chiqmaydi. Ko‘p hollarda u implikatura, inferensiya, presuppozitsiya va argumentativ bog‘lanishlar vositasida shakllanadi. Shu sababli matnning faqat leksik-semantik qatlamini tavsiflash ayrim kommunikativ hodisalarni to‘liq izohlash uchun yetarli bo‘lmay qoladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan hodisalar lingvistik ekspertizaning qo‘llanish doirasi va uning metodologik chegaralari turli darajalarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Lingvistik ekspertizada metodologik cheklanishlarning namoyon bo‘lish shakllari

Hodisa	Lingvistik tavsif imkoniyati	Qo‘shimcha tahlil zarurati
Ironiya	Leksik tarkib va grammatik shakl tavsiflanadi	Pragmatik vaziyat hisobga olinadi
Implikatura	Ochiq mazmun aniqlanadi	Yashirin ma’no tiklanadi
Inferensiya	Norma matni tavsiflanadi	Matndan kelib chiqadigan xulosa aniqlanadi
Yashirin ayblov	Til birliklari tahlil qilinadi	Kommunikativ ta’sir baholanadi
Argumentativ manipulyatsiya	Grammatik va semantik qurilish tavsiflanadi	Mantiqiy bog‘lanishlar tekshiriladi

Bunday vaziyatlarda tahlil obyektiga matnning pragmatik va mantiqiy xususiyatlarini ham kiritish zarurati tug‘iladi. Lingvomantiqiy ekspertiza aynan shu nuqtada lingvistik ekspertizaning davomi sifatida namoyon bo‘ladi. U matnni bir necha o‘zaro bog‘liq bosqichlarda tahlil qilishni nazarda tutadi. Avvalo liso-

niy birliklar va ularning qo‘llanish xususiyatlari aniqlanadi, keyin kommunikativ vaziyat hamda yashirin ma’nolar tahlil qilinadi, shundan so‘ng matndan kelib chiqadigan inferensial bog‘lanishlar va xulosalar rekonstruksiya qilinadi. Yakuniy bosqichda esa olingan natijalarning normativ-huquqiy talqin bilan aloqasi baholanadi.

Shunday qilib, lingvo-mantiqiy ekspertiza lingvistik ekspertizaga muqobil yondashuv sifatida emas, balki uning metodologik imkoniyatlarini kengaytiruvchi yo‘nalish sifatida qaralishi mumkin. Bu yondashuv matnning eksplitsit mazmuni bilan undan kelib chiqadigan implitsit ma’nolar o‘rtasidagi munosabatni izchil tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Sud-lingvistik ekspertiza bugungi kunda mualliflik identifikatsiyasi, terminologik ekspertiza, semantik tavsif hamda konfliktli matnlarni tahlil qilishda samarali qo‘llanib kelmoqda. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayrim kommunikativ hodisalarni izohlashda matnning leksik va grammatik tarkibini tavsiflashning o‘zi yetarli bo‘lmay qoladi. Implikatura, inferensiya, yashirin ayblov va argumentativ ta’sir kabi hodisalar, ko‘pincha, matnning pragmatik hamda mantiqiy qatlamlarida shakllanadi.

Normativ-huquqiy matnlar misolida ham norma matnida ifodalangan mazmun bilan undan kelib chiqadigan talqin o‘rtasida tafovut yuzaga kelishi mumkinligi kuzatildi. Soliq kodeksining ayrim moddalari tahlili huquqiy xulosa, ko‘pincha, matnning bevosita mazmunigagina emas, balki talqin jarayonida shakllanadigan inferensial bog‘lanishlarga ham tayanishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, nizoli matnlarni ekspertizadan o‘tkazishda implikatura va inferensiyani aniqlash mezonlarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq. Normativ-huquqiy matnlarni tahlil qilishda esa lingvistik tavsif bilan bir qatorda, pragmatik va mantiqiy tahlil usullaridan ham foydalanish foydali bo‘lishi mumkin. Lingvo-mantiqiy ekspertiza bilan bog‘liq metodologik masalalarni chuqurroq ishlab chiqish ushbu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlarning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика. Учебное пособие, Москва, “Флинта: Наука”, 2007, 592 с.

(2). Галяшина Е.И. Основы судебной лингвистической экспертизы. Москва, “Стэлс”, 2003, 236 с.

(3). Grice H.P. Logic and Conversation. Syntax and Semantics. vol. 3, Speech Acts. Ed. by P. Cole, J.L. Morgan. New York, Academic Press, 1975, 41–58 p.

(4). Coulthard M., Johnson A. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. London, Routledge, 2007, 304 p.

(5). Musulmonova K. O‘zbek yozma matnlarida lingvistik ekspertiza o‘tkazish maqsadi va asoslari. Wissenschaftliche Ergebnisse und Errungenschaften. München, 2020, 97–99-betlar.

(6). Najmiddinova N. Haqorat mazmunidagi matnlar bo‘yicha lingvistik ekspertiza o‘tkazish jarayoni. “O‘zbekiston sud ekspertizasi”, 2023, 2-son, 42-bet.

(7). Shuy R.W. Language Crimes: The Use and Abuse of Language Evidence in the Courtroom. Oxford, Blackwell, 1993, 227 p.

(8). Svartvik J. The Evans Statements: A Case for Forensic Linguistics. Göteborg, University of Göteborg Press, 1968, 46 p.

(9). O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). 2020, Kirish rejimi: https://lex.uz/docs/4674902 (murojaat sanasi: 16.02.2026).

Abdullayeva Muslimaxon Ubaydulla qizi (Namangan davlat Pedagogika instituti:
E-mail: abdullayevamuslima34@gmail.com)

O‘ZBEK MULOQOT DISKURSIDA PRAGMATIK BIRLIKLARNING PRESUPPOZITSIYA VA IMPLIKATURA HOSIL QILISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek muloqot diskursida pragmatik birliklarning presuppozitsiya va implikatura hosil qilish mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqotda “yana”, “ham”, “axir”, “shekilli”, “balki”, “mayli”, “demak”, “bir” kabi birliklarning yashirin ma’no yaratishdagi o‘rni deskriptiv, kontekstual va diskursiv-pragmatik metodlar asosida izohlandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, presuppozitsiya avvaldan ma’lum deb qabul qilinadigan axborotni, implikatura esa bevosita aytilmagan, biroq vaziyat orqali anglanadigan ma’noni shakllantiradi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati o‘zbek nutqiy odobi, bilvosita ifoda va kommunikativ niyatni tahlil qilish mezonlarini aniqlashdadir.*

Kalit so‘zlar: *pragmatik birlik, presuppozitsiya, implikatura, diskurs, kontekst, yashirin ma’no, nutqiy odob.*